



KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XIII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 13-son (10-iyul, 2026-yil).– 148 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 6-iyul.

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

XORIJDAN KELTIRILGAN G'O'ZANING XINLUZHONG-52 NAVINI PARVARISHLASHDA SUG'ORISH TARTIBI, HAMDA KO'CHAT QALINLIKLARIGA BOG'LIQ XOLDA RETARDANT QO'LLASH MUDDATI VA ME'YORLARINING BIR KO'SAKDAGI PAXTA VAZNIGA TA'SIRI

Atabyaeva Ma'mura Sadirdin qizi

q.x.f.d., professor AndQXAI

ORCID: 0009-0003-9959-1818

Email: mamuraatabaeva20@gmail.com

Saydaliyev Begijon Shavkatbek o'gli

Tayanch doktorant AndQXAI

ORCID: 0009-0004-6218-9790

Annotatsiya. Mazkur maqolada g'o'zaning xorijiy navlarini parvarishlash uchun Sug'orish oldi tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 70-75-65 % etib belgilib, nazariy ko'chat qalinligi 220-240 ming tup/ga qoldirilib retardantni vegetatsiya davrida 6 marta qo'llanilganda xamda sug'orish tartibi 65-70-60 % etib belgilangan fonda nazariy ko'chat qalinligi 150-160 ming tup/ga qoldirilib parvarishlan retardantni 3 marta qo'llanilganda, fonlar bo'yicha parvarishlangan variantlarga nisbatan bir dona ko'sakdagi paxta vazni 1,2-0,3 gramgacha yuqori bo'lganligi kuzatilib, paxta xosildorligi esa 9,8-28,0 s/ga gacha qo'shimcha hosil olishga erishilgan.

Kalit so'zlar: g'o'za, sug'orish tartibi, ChDNS, nazariy ko'chat qalinligi, retardant, bir dona ko'sakdagi paxta vazni, paxta xosili.

EFFECT OF IRRIGATION REGIME AND TIMING/RATES OF RETARDANT APPLICATION (BASED ON PLANT DENSITY) ON COTTON WEIGHT PER BOLL IN THE IMPORTED XINLUZHONG-52 VARIETY

Atabyaeva Ma'mura Sadirdin qizi

PhD, Professor AndQXAI

Saydaliyev Begijon Shavkatbek o'gli

Key doctoral student AndQXAI

Annotation. In this study, foreign cotton varieties were cultivated under two regimes: the first involved maintaining soil moisture prior to irrigation at 70–75–65% of field capacity (FC), a theoretical plant density of 220,000–240,000 plants/ha, and six applications of plant growth retardants during the growing season; the second involved moisture levels of 65–70–60% FC, a density of 150,000–160,000 plants/ha, and three applications of retardants. Compared to the respective control variants, the weight of cotton per boll was 0.3–1.2 g higher, and the yield increase ranged from 9.8 to 28.0 centners/ha.

Keywords: cotton, irrigation regime, minimum water-holding capacity (MWHC), theoretical plant density, plant growth retardant, mass of raw cotton per boll, cotton yield.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymdif-y2026v2i13/n06>

Tadqiqotning dolzarbligi. Hozirgi kunda O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabning ortib borishi paxta yetishtirish samaradorligini oshirishni, mavjud yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishni hamda tuproq unumdorligini saqlab qolish bilan bir qatorda uni muntazam ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai

nazardan, tuproqning agro-fizik xossalari, xususan hajm massasi va g'ovakdorligini maqbul holatda saqlash g'oz'a hosildorligini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Xitoy seleksiyasiga mansub g'oz'a navlarini yetishtirishda zamonaviy agrotexnologiyalarni qo'llash, sug'orish rejimini ilmiy asosda tashkil etish, ko'chat qalinligini optimal darajada belgilash hamda o'simlikning o'sishi va rivojlanishini tartibga soluvchi preparatlardan foydalanish tuproqning fizik holatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Mazkur yo'nalishda olib borilayotgan islohotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-sonli "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni hamda 2022-yil 1-martdagi PQ-144-sonli "Qishloq xo'jaligida ilm-fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori asosida amalga oshirilmoqda. Ushbu me'yoriy-huquqiy hujjatlarda tuproq unumdorligini oshirish, suv tejovchi agrotexnologiyalarni joriy etish, paxtachilikda resurstejamkor texnologiyalardan foydalanish va yuqori hosildor navlarni yetishtirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Ma'lumki, barcha g'oz'a navlarida ertaki va sifatli paxta hosili yetishtirish agrotexnologiyasi amalda ta'minlangan bo'lsada, keyingi yillarda jaxon andozalari talabi va paxta yetishtiruvchi mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro raqobatlarining kuchayishi yanada yangi samarali raqobatdoshli hosil yetishtiruvchi agrotexnologik tadbirlarini talab qiladi. Shu sababli har qanday g'oz'a navi ayniqsa, tuproqqa ishlov berishning resurstejamkor texnologiyasi, ya'ni kombinatsion agregat yordamida ishlov berish tadbirlari, unda kechadigan mikrobiologik jarayonlarga salbiy ta'sir etishi natijasida, urug'larning unib chiqishi va o'simliklarning o'sib-rivojlanishiga hamda hosildorlikning keskin kamayishiga olib keladi. O'zbekistonda R.Isaev, D.Rashidova, N.Mamedov [1; B. 9-10], Z.Jumaboyev, N.N.O'razmatov [2; B. 337-339], I Karabaev [3; B. 27-29], Bekker.M.M, Govers.G, Jones.R.A, Rounsevell.M.D.A [4; B. 1209-1219] va boshqa olimlar respublikaning turli tuproq iqlim sharoitlarida kuzgi bug'doydan keyin takroriy ekin sifatida dukkakli-don ekinlari parvarishlanganda yuqori hosil olish bilan birga va ulardan keyin g'oz'a parvarishlanganda g'oz'aning ko'chat qalinligi, o'sish va rivojlanishi xamda qo'shimcha 4-5 ts/gacha paxta hosili olingani va shu bilan birga takroriy ekinlardan qolgan ildiz-ang'iz qoldiqlari hisobiga tuproqning unumdorligi saqlash va oshirishda ijobiy natijalarga erishilganligini ta'kidlashgan.

Shu bois, Andijon viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida g'oz'a yetishtirish samaradorligini oshirish, tuproq unumdorligini saqlash va yaxshilash bilan bir qatorda tuproqning hajm massasi hamda g'ovakdorligiga turli agrotexnologik omillarning ta'sirini o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Xitoy seleksiyasiga mansub g'oz'a navlarini parvarishlashda sug'orish rejimini ilmiy asosda tashkil etish, ko'chat qalinligini optimal darajada shakllantirish hamda o'simlikning o'sishini tartibga soluvchi moddalardan samarali foydalanish orqali o'simlikning o'sish va rivojlanish jarayonlarini boshqarish imkoniyati kengayadi. Natijada tuproqning zichlanish darajasi kamayib, g'ovakdorligi ortadi, oziqa moddalarining o'zlashtirilishi yaxshilanadi hamda hosildorlik va tola sifati oshishi bilan birga ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirishga erishiladi.

Tadqiqot metodikasi. Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti o'quv tajriba xo'jaligining o'tloq bo'z tuproqlari sharoitida 2023-2025 yillarda g'oz'aning maxalliy


“Andijon 36” xamda Xitoydan keltirilgan g'ozaning **XinLuZhong-52** navlari parvarishlash quyidagi tajriba tizimi asosida olib borilgan (1-jadval).

1-jadval

TAJRIBA TIZIMI


Nº	G'o'za navlari	Sug'orish tartibi CHDNS %	Entojan preparatini qo'llash muddati va me'yorlari gr/ga	Ko'chat qalinligi ming tup/ga
1	Andijon - 36 (nazorat)	70-75-65	15:45:90	150-160
2	XinLuZhong - 52	70-75-65	15:45:90	150-160
3				180-200
4				220-240
5			10:15:45:90:90:120	150-160
6				180-200
7				220-240
8		65-70-60	15:45:90	150-160
9				180-200
10				220-240
11			10:15:45:90:90:120	150-160
12				180-200
13				220-240

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotlarimizda g'ozaning Andijon-36 navini 2023-2025 yillarda ishlab chiqarish sharoitida olib boriladigan agrotehnologiya asosida parvarishlashda nazariy ko'chat qalinligi 150-160 ming tup/ga miqdorda, sug'orish oldi tuproq namligi cheklangan dala nam sig'imi (ChDNS) ga nisbatan 70-75-65% etib belgilanib hamda o'sishni sozlovchi modda Entojan preparatini 15:45:90 gr/ga me'yorlarda qo'llanilgan 1-variant (nazorat)da o'rtacha uch yil mobaynida bir ko'sakdagi paxta vazni 3,2 gramni tashkil qilganligi kuzatilib, xuddi shu fonda g'ozaning xorijiy XinLuZhong -52 navi parvarishlangan 2- variantga hamda o'sishni sozlovchi moddani vegetatsiya davrida 6 martda (10:15:45:90:90:120 gr/ga) me'yorda qo'llanilgan nazariy ko'chat qalinligi 180-200 ming tup/ga qoldirilgan 5-variantga nisbatan bir dona ko'sakdagi paxta vazni 1,1-1,2 gr/ga yuqori bo'lganligi kuzatildi. Yuqorida qayt etilgan sug'orish tartibida, nazariy ko'chat qalinligi 220-240 ming tup/ha qoldirilib. Retardantni 10:15:45:90:90:120 gr/ga me'yorlarda qo'llanilgan 7- variantda bir dona ko'sakdagi paxta vazni xuddi fonda nazariy ko'chat qalinligini 180-220 ming tup/ga qoldirilgan 6- variantga nisbatan 0,3 gr/ga yuqori bo'lganligi kuzatilgan bo'lsa, retardantni 3 martda qo'llanilgan 4- variantga nisbatan bir dona ko'sakdagi paxta vaznida deyarli farq kuzatilmadi.



1-rasm. G'o'zaning XinLuZhong-52 navini parvarishlashda sug'orish tartibi, hamda ko'chat qalinliklariga bog'liq xolda retardant qo'llash muddati va me'yorlarining bir ko'sakdagi paxta vazniga ta'siri

Olib borilgan tadqiqotlarimizda go'zaning Xitoydan keltirilgan g'o'zaning XinLuZhong-52 navi parvarishlashda sug'orish oldi tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 70-75-65% etib belgilanib, o'sishni sozlovchi modda entoanni 6 martda (10:15:45:90:90:120 gr/ga me'yor) qo'llanilgan hamda nazariy ko'chat qalinligi 220-240 ming tup/ga qoldirilgan 7-variantda maqbul sug'orish tartibi o'simliklarning suv bilan ta'minlanishini yaxshilashi, o'sishni sozlovchi moddaning erta muddatlarda xamda ma'qbul me'yorlarda qo'llanilishi xisobiga o'simlikning vegetativ va generativ organlar rivojlanishini muvozanatlashtirishi hamda optimal ko'chat qalinligining yorug'lik, namlik va oziqa moddalardan samarali foydalanishga xisobiga g'o'zaning xosili 68,5 s/ga tashkil qilib, o'sishni sozlovchi moddani vegetatsiya davrida 3 marta 15:45:90 gr/ga me'yorlarida qo'llanilgn 4- variantga nisbatan 8,5 s/ga gacha xamda xuddi shu fonda parvarishlangan 5 va 6-variantlarga nisbatan esa 17,1-18,7 s/ga gacha qo'shimcha xosil olinganligi aniqlandi.



2-rasm. Sug'orish tartibi, hamda ko'chat qalinliklariga bog'liq xolda retardant qo'llash muddati va me'yorlarining XinLuZhong-52 navining hosildorligiga ta'siri, ts/ga.

Sug'orish oldi tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 65-70-60 % etib belgilanib, o'sishni sozlovchi modda entoanni 3 martda (15:45:90 gr/ga me'yor) qo'llanilib nazariy ko'chat

qalinligi 150-160 ming tup/ga qoldirib, parvarishlangan 8- variantda g'o'za hosildorligi 60,6 s/ga ni tashkil qilganligi kuzatilib, nazorat (Andijon-36) 1- variantga nisbatan 20,2 s/ga gacha qoshimcha xosil olingan bo'lsa, sug'orish tartbi 70-75-65 % etib belgilab, o'sishni sozlovchi moddani vegetatsiya davrida 3 marta qo'llanilgan 2- variantga nisbatan esa 17,9 s/ga gacha xamda xuddi shu sug'orish tartibi va ko'chat qalinligida faqat retardantni ni 6 marta qo'llanilgan 5- variantga nisbatan esa 18,0 s/ga gacha qo'shimcha xosil olingan.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlarimizda g'o'zaning xorijiy navlarini parvarishlash uchun Sug'orish oldi tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 70-75-65 % etib belgilib, nazariy ko'chat qalinligi 220-240 ming tup/ga qoldirilib retardantni vegetatsiya davrida 6 marta qo'llanilganda xamda sug'orish tartibi 65-70-60 % etib belgilangan fonda nazariy ko'chat qalinligi 150-160 ming tup/ga qoldirilib parvarishlan retardantni 3 marta qo'llanilganda, fonlar bo'yicha parvarishlangan variantlarga nisbatan bir dona ko'sakdagi paxta vazni 1,2-0,3 gramgacha yuqori bo'lganligi kuzatilib, paxta xosildorligi esa 9,8-28,0 s/ga gacha qo'shimcha hosil olishga erishilgan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Isaev R., Rashidova D., Mamedov N. Ko'chat soning urug'lik paxta hosili, ko'sak yirikligi va chigit vazniga ta'siri. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. 2009. №4. B. 9-10.
2. Jumaboyev Z., O'razmatov N.N.- Takroriy dukkakli don ekinlar hosildorligi. Xalqaro ilmiy amal. konferentsiya materiallari to'plami. -Toshkent. 2018. B. 337-339.
3. Karabaev I.T. - Takroriy ekin ekish oldidan yerga ishlov berish // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2014. -№5. -B. 27-29.
4. Bekker M.M., Govers G., Jones R.A., Rounsevell M.D.A The effect of soil erosion on Europe's crop yields, Ecosystems. 2007. 10. rr. 1209-1219

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, 10-iyul

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 13-son (iyul, 2026-yil). – 148 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 6-iyul.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.